

ABDULLA QODIRIY VA O‘ZBEK NASRI

Davlatova Ozoda Nasirovna*Guliston davlat universiteti Filologiya tillarini o‘qitish**(o‘zbek tili) yo‘nalishi 3-bosqich talabasi**e-mail: ozodadavlatova741@gmail.com*

Annotatsiya: *Abdulla Qodiriyning o‘zbek nasri rivojiga qo‘shgan hissasi, shuningdek, adib asarlarining yaratilishi, nasr taraqqiyoti, shakllanish bosqichlari haqida mulohaza yuritiladi.*

Kalit so‘zlar : *nasr, esse, roman, syujet, kompozitsiya, sujet, hikoya.*

Abstract : *The creation of Abdulla Qadiri's works made a great contribution to the development of Uzbek literature, in particular, its place in Uzbek prose and its development. This article discusses the stages of creation, development, and formation of prose and Abdullah Qadiri's role in it.*

Keywords : *prose, essay, novel, plot, composition, real, story.*

Nasriy asar, badiiy adabiyotning prozaik janriga mansub bo‘lib, asosan voqealar, personajlar va ularning ichki dunyosini tasvirlaydi. Nasr asarlari hikoya, roman, esselar va boshqa prozaik shakllarda bo‘lishi mumkin. Ushbu asarlar insonning hayotiy muammolarini, ijtimoiy adolatsizliklarni, muhabbat va urush kabi mavzularni o‘rganadi. Nasriy asarlarning maqsadi o‘quvchini o‘ziga tortish, uning fikrini, hissiyotini uyg‘otish va murakkab ijtimoiy-hayotiy masalalar haqida o‘ylashga majbur qilishdir. Nasr, o‘zining ifodalilik va hikoya qilish uslubi bilan, o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin egallaydi va milliy madaniyatni, an‘analarni va tarixiy jarayonlarni yoritishda katta ahamiyatga ega. Nasr V-VIII asrlarga oid O‘rxun-Enasoy yodgorliklarini turkiy xalqlar adabiyotidagi Nasrning eng qadimgi namunalari, deb hisoblash mumkin. She‘riyatning rivojlanishi “Qutadg‘u bilig” (Yusuf Xos Hojib) va “Hibat ul-haqoyiq” (Ahmad Yugnakiy) kabi dostonlarning yaratilishi bilan birga X-XII asrlarda Abdulmuayyad va Abuali Balxiylarning “Shohnoma”, Abdulmuayd Balxiyning “Gershaspnoma”, Homididdin Balxiyning “Makrmati Homidiy”, Saidaddin Muhammad Av-fiy Buxoriyning “Javome ul-hikoyot va lavome’ ur-rivoyot” (“Hikoyalar to‘plami va rivoyatlar yolqini”) singari nasriy asarlari vujudga keldi. XIV asr boshlarida Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy”, Navoiyning “Mahbub ul-qulub” singari nasriy asarlari, ayniqsa, “Boburnoma”ning yaratilishi bilan o‘zbek adabiyotida milliy nasrning asosiy qirralari nurlanib ketdi. Ammo shunga qaramay, hozirgi tushunchadagi nasrning taraqqilishi XX asrning 20-30-yillarida o‘zbek nasri yangi yo‘nalishlari bilan yangi bosqichga ko‘tarila boshladi. Bu davr hikoyachiligida realistik hikoyalar bilan birga hajviy hikoyalar yaratishga ham e‘tibor berila boshlandi.

Masalan, Abdulla Qodiriyning “Kalvak maxzumning xotira daftaridan”, “Toshpo‘lat tajang nima deydi?” o‘zbek hajviy hikoyachiligida yangicha yo‘nalishni boshlab berdi. Bu hikoyalarning asosida fosh qiluvchi kulgu yotadi. Bu davrda yana Cho‘lponning “Oydin kechalarda”, “Qor qo‘ynida lola”, “Novvoy qiz” hikoyalari yaratildi. Bu hikoyalarda realistik tasvir bilan, qahramonlar ruhiyatining rang-barangligi badiiy vositalar bilan ochib berilgan. Shuningdek Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanining e‘lon qilinishi bilan zamonaviy realistik o‘zbek nasr uzil-kesil shakllandi. Bu nasr mumtoz o‘zbek adabiyotidagi nasrdan dastavval ijobiy va salbiy qahramonlar obrazi, syujet va kompozitsiyasi, badiiy konfliktga egaligi, hayotiy yoki afsonaviy-fantastik voqealarni muayyan badiiy til va uslubda tasvirlab berganligi hamda badiiy qonuniyatlarga to‘la rioya etib yozilganligi bilan farqlanadi. Uning eng mashhur nasriy asarlaridan biri “O‘tkan kunlar” romanidir. “O‘tkan kunlar” asarida Qodiriy, qadimiy va zamonaviylik, an‘analar va o‘zgarishlar o‘rtasidagi kurashni tasvirlaydi. Asar, shuningdek, o‘zbek xalqi madaniyati, urf-odatlar va umuman insoniy munosabatlar haqidagi chuqur fikrlarni o‘z ichiga oladi. Qodiriy o‘z asarlarida personajlarning ichki dunyosini, hissiyotlarini va hayotiy muammolarini juda real va hayotiy tarzda tasvirlaydi. Yozuvchining boshqa muhim asarlari “Mehrobdan chayon”, “Qahramonlar”, va “Jodugar” kabilar ham ijtimoiy mavzularni ko‘taradi va o‘z davrining muammolarini o‘z ichiga oladi. Qodiriy asarlari o‘zbek adabiyotining taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.

Yana bir asari “Uloqda” hikoyasi zamonaviy o‘zbek adabiyotining birinchi namunalariidandir. Hikoya 1915-yilda yozilib, 1916-yilda Toshkentda alohida kitobcha sifatida nashr etilgan. “Uloqda” hikoyasida adib quvonch bilan o‘limni yonma-yon tasvirlab, insonni hamisha aql-u idrok bilan ish tutishga undaydi, behuda narsalarga umrni sarflamay, ma‘rifatga, ma‘naviy yuksalish va madaniy turmushga intilib yashash g‘oyasini ilgari suradi. “Uloqda” hikoyasi Turg‘un ismli yigitchaning tilidan aytib beriladi. Otasidan uloq tomoshasiga borishga ruxsat olgan Turg‘un astoydil tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi. Qashqa toychog‘ini yuvib tarab, o‘zi ham hayit va bayramlarda kiyinadigandek yasanib, tomoshaga otlanadi. Yozuvchi mana shu jarayonni yosh qahramonining tilidan shunchaki aytib bera qolmaydi, balki tasvirlaydi. “Turg‘un chavandoz” degan maqtov eshitgisi keladi, hurmati oshishini istaydi. O‘rni bilan maqsadiga erishadi ham – akasining do‘stlari uning ot minib ketishini ko‘rib, «Barakalla, Turg‘un chavandoz», – deb olqishlaydi. O‘rtoqlari bilan o‘zini qiyoslar ekan, ularning otlariga o‘zining otini, kiyimlariga o‘zining kiyimlarini solishtiradi va o‘zida «allanima» sezadi. Shundan keyin o‘rtoqlari bilan kim o‘zarga ot choptirib, yana ularni dog‘da qoldiradi. Bularning barchasi Turg‘unning uloq tomoshasiga astoydil tayyorlangani natijasi edi. Yozuvchi shu holatlar tasviri orqali Turg‘undagi o‘zi qiziqqan ishiga mas‘uliyat va jonkuyarlikni ibrat qilib ko‘rsatadi. Biroq bularning barchasi ro‘y beradigan hodisa oldida arziyas bir narsa edi. Abdulla Qodiriy ijodining

ilk davrlaridayoq shunday mahorat ko'rsata olgan usta san'atkor yozuvchi edi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, Abdulla Qodiriy hayoti va faoliyatining ilk davrida o'z safdoshlari bilan birga ma'rifat uchun, xalqimizni qoloqlik, xurofot va yomon odat hamda bid'atlardan xalos etish uchun kurashdi. Uning bu davrdagi ijodi to'liq ana shu maqsadga yo'naltirilgan edi. «Uloqda» hikoyasi yozuvchining ilg'or g'oyalarni badiiy tasvirlashda mahorat kasb eta boshlaganini ko'rsatuvchi nasriy asardir.

A.Qodiriy o'z asarlari bilan o'zbek nasrida yangi yo'nalishlarni ochdi, bu esa kelajak avlod nasr yozuvchilariga ta'sir ko'rsatdi. Uning asarlarida o'zbek xalqining tarixi, urf-odatları va qadriyatları chuqur aks ettiriladi, bu esa milliy ma'naviyatni mustahkamlashga xizmat qiladi Qodiriy o'zbek tilini badiiy jihatdan boyitib, uning ifodali imkoniyatlarini ochdi. Uning uslubi ko'pchilik uchun namuna bo'lib xizmat qildi. Qodiriy qahramonlarining ichki dunyosini chuqur tahlil qilib, insonning psixologik jihatlarini, ijtimoiy muammolarini va hissiyotlarini o'rgandi. Uning asarlari axloqiy, tarbiyaviy va falsafiy masalalarni muhokama qilib, o'quvchilarni to'g'ri yo'lni tanlashga undaydi. Shu tariqa, Abdulla Qodiriy ijodi o'zbek adabiyotida nafaqat badiiy, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Nasr>
2. «Sharq» nashriyot -matbaa Aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent — 2014
3. <https://uzsmart.uz/encyclopedia/encyclopedia/52971.html>
4. www.ziyouz.com kutubxonasi
5. <https://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/102-uloqda-hikoya-abdulla-qodiriy.html>